



BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI KASBIY-METODIK RIVOJLANTIRISH ORQALI FANNI O'QITISHGA TAYYORLASH

Yoqubaliyeva D.P.

Andijon davlat pedagogika instituti,

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kasbiy, metodik, texnikaviy, axborotli, insonparvarlik, vatanparvarlik, mas'uliyat, kreativlik, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, ma'rifatparvarlik, interfaol.

Ключевые слова: профессиональный, методический, технический, познавательный, гуманитарный, патриотизм, ответственность, творчество, целеустремленность, правосознание и культура, просвещение, интерактив.

Key words: professional, methodical, technical, informative, humanitarian, patriotism, responsibility, creativity, commitment, legal consciousness and culture, enlightenment, interactive.

Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda mamlakatimizda tarbiya fanining mazmun va mohiyatini barkamol avlodni tarbiyalash va ta'lim berishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Yurtimizda sog'lom, yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr texnika asri talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida voyaga yetkazish bo'yicha zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Tarbiya jarayonida o'quvchilarning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish muhim masalalardan biridir. Axloq normalarini o'quvchilar ongiga singdirish zarur.

Tarbiya - yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi. Shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda tutgan o'rni va turmush tarzini yaxshilashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuini anglatadi.



Tarbiya nafaqat oilada, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo'libgina qolmay, balki uning yetakchi g'oyalari gazeta va jurnallar, ommaviy axborot vositalari orqali singdirilgan mafkurani ham o'z ichiga oladi. Chunonchi, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tushunchadir. Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shunday ekan, tarbiya ta'lim olish bilan uzviy chambarchas bog'liq holda amalga oshirilib kelinadi. Ta'lim-tarbiya orqali shaxsda ezgu ma'naviy-axloqiy sifatlar tarkib topib boradi.

Tarbiya fani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2020-2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarda «Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari» g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqotlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan.

Fan va darslik konsepsiyasini yaratishda Yaponiya, Singapur, Angliya, BAA, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya kabi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanildi. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq. «Tarbiya» fanini o'qitishning amaliy shakllari va metodologiyasi shuningdek, mamlakatimizda tarbiya fanini o'qitishning maqsad vazifalari va bu jarayon qay tarzda olib borilayotganligi, o'quvchilarga tarbiya darslarini samarali tashkil etishda o'qituvchilarning kasbiy-metodik mahorati haqida fikr yuritilgan.

Ta'lim-tarbiya orqali shaxsda ezgu ma'naviy-axloqiy sifatlar shakllanib boradi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: - "Albatta, ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim".

Yuqoridagi keltirib o'tilgan fikrlardan shuni aytish joizki, insonning boy ma'naviy-tarixiy jarayonida samarali foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni



vatanparvar, xalqparvar, yuksak ma'naviyatli etib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarni singdirishda tarbiya ishlarni to'g'ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari, o'gitlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar qalbida insoniylik urug'larining ko'rinishiga, g'ururi hayot yo'liga olib chiqishiga yordam beradi. Shu bois biz uchun qadrlil bo'lgan allomalarimizdan Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Asqar Zununov va boshqalarning ta'lim-tarbiya va ma'rifat haqidagi g'oyalardan keng foydalanish bugungi kun talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Takror va takror bo'lsada ta'kidlash lozimki, tarbiya haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari barchamizni mazkur masalada o'ta sergak tortishimizga chorlaydi. Ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida ma'naviy tanazzulning asosiy omillari bo'yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy, empirik ma'lutolar qo'lga kiritildi.

Tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;
- faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;
- bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota-ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta'minlash muhimdir.

Tarbiya jarayonini tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko'p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog'liq. Ular quyidagi omillarni qo'llash asosida vujudga keladi:

- tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqealari jamoadagi tartib qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondoshuv kabilardir;
- tarbiya ishlarning maqsadi, aniqligi va ta'sirchanligi. Tarbiya jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart-sharoitlarni oldindan aniqlab qo'yilgan maqsadga muvofiqlashtirish;
- tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqat va munosabatda bo'lishlari, ruhiy shart-sharoitlar yaratilishi. Tarbiya tadbirlarni gigiyena qoidalariga

moslash, estetik talablarga javob berishi. Tarbiya ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir.

- o'quvchi-yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish. Tarbiya tadbirlarni tashkil qilishda o'quvchi yoshlarning faolligi ko'p jihatdan ixtiyoriylik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog'liq;
- tarbiya ishlar ta'lim jarayonida olgan bilimlariga uyg'un bo'lishi. Tarbiya ishlarni rejalashtirishda turli fanlarning integratsiyasi hisobga olish ijobiy xarakter kasb etadi. Tarbiya ishlar metodikasi yosh avlodni har tamonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g'oyani singdirishda har tamonlama ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyani tashkillashtirish jarayonida tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa degan edi, ulug' olim Arastu. Shunga asosan, tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- tarbiya ishlar jarayonida va tarbiyada ulg'ayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb bilish, har bir bola, o'smir va yoshlarning o'ziga xosligini hurmat qilish;
- milliylikning o'ziga xos an'ana, vositalariga tayanish, milliy merosga asoslanish;
- o'quvchilar faoliyatida tarbiya jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli bolalar yosh jihatlariga mos turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga qatnashishini ta'minlash, mehnat, ijtimoiy foydali, ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish lozim.

Natijalar va muhokama. Metod (lotincha-metodos-yo'l so'zidan olingan bo'lib) tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilingan. Metodika (yunoncha-metodikos) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o'qitish tarbiyalash usullari va vositalari degan tushunchani anglatadi. Tarbiya metodlari-pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir. Tarbiya metodlari bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini Tarbiya fanini o'qitish ishlarini to'g'ri tashkil etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi va bola shaxsining har tamonlama kamol topishi bilan belgilanadi.

Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga har tamonlama yetuk, barkamol, erkin, ijodkor, tashkilotchi, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifasini o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari o'qituvchi va jamoa tomonidan tarbiyalanuvchilarning g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his tuyg'u va odatlarini tarkib toptirish maqsadida qo'llanadi. Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog'liq holda amalga



oshiriladi. Shuning uchun ham tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlaridan biridir. O'qituvchi o'quvchilar bilan Tarbiya fanidan dars mashg'uloti olib borganda turli xil usul va vositalarni qo'llagan holda bu ishni amalga oshiradi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, ta'sir qilish zarurligini ko'rsatadi. Shu boisdan, Tarbiya fanini o'qitishda ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib quyidagi turlarga ajratish mumkin.

1. Ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar.
2. Odatlantirish va faoliyatga mashqlantirish metodlari.
3. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari.

Tarbiya fanining asosiy vazifasi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy merosimizga, umumbashariy qadriyatlarga, urf-odatlar va an-analarga tayanib, ongli shaxslarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Tarbiya fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib, unga tarbiya ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lish;
- tarbiya ish va tadbirlar uchun zarur bo'lgan metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilish;
- ilg'or tajribalarni tahlil qilish va uni o'z faoliyatida ijodiy foydalanish ;
- tarbiyaning o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish;
- tarbiya ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini yuqori saviyadagi umumiy va kasbiy madaniyatga ega, metodologiya va pedagogika sohasida fundamental bilimlarni chuqur biladigan, ta'lim jarayonida pedagogik muammolarni tizimli ravishda olib boruvchi mahoratli va omilkor o'qituvchilarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. SHu jihatdan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida asosiy e'tibor bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida ijodiy pedagogik faoliyatning o'ziga xos usul-larini shakllantirishga va takomillashtirishga qaratilgan.

O'qituvchilik kasbining mohir ustasi bo'lish, avvalo, shaxsning o'z individual xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanish va individual ishlay olish qobiliyatining qanday shakllanganligi bilan bog'liq. Bu usul oliy o'quv yurtida o'quv va amaliy mashg'ulotlar jarayonida shakllantiriladi va kelajakda ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi individual, o'ziga xos usullar tizimidan iborat bo'ladi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahorat va omilkorlikni shakllantirish g'oyasi

etakchi o'rinda bo'lishi kerak. Yuksak malakali o'qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirish yo'llari har xil bo'lishi mumkin. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi o'z kasbiy mahoratining shakllantirilganligini bildiruvchi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisiga, pedagogik muomala madaniyatiga ega bo'lishlik kasbiy - pedagogik omilkorlikning asosiy poydevori hisoblanib, o'qituvchining kasbiga nisbatan shaxsiy tavsifnomasi hisoblanadi.

O'qituvchining kasbiy mahorati ta'lim muassasasida -ta'lim jarayonida va ish faoliyatida shakllanadi. SHu nuqtai nazardan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi talabalari o'z mahoratlarini ikki tomonlama-amaliyotda hamda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayonida shakllantiradilar. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ko'proq amaliy jihatdan o'z malakalarini oshirishni xohlaydilar. Chunki, ish faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan muammolar ko'p. Ularning yechimini oliy ta'lim muassasasi partasida, yetakchi olimlar hamkorligida topishni orzu qilishadi.

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarga avvalo, kasb mahorati va uni qanday qilib shakllantirish mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, barcha sohalarida bo'lganidek, kasb mahorati ham o'qituvchida yillar davomida shakllanib takomillashadi. SHu narsa alohida e'tiborga loyiqki, bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy mahorati, amaliy va uslubiy tajribaga ega bo'lishi uchun asosiy zamin ish faoliyati jarayonida shakllanadi. Chunki, kasb mahorati o'ta murakkab va milliy xususiyatga ega bo'lgan jarayon bo'lgani bois, uni egallash, yuqorida ta'kidlanganidek, o'qituvchining uzoq yillar samarali izlanishlari, ijodkorlik mehnati evaziga ro'yobga chiqadi. Ammo, pedagogik mahorat sirlarining ilmiy vaamaliy negizi o'z vaqtida berilmas ekan, uni oliy ta'lim muassasasidan keyingi kasbiy faoliyati jarayonida kashf etish har doim ham o'z samarasini bermaydi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchilar va bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari bu jarayonda shaxs rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Tarmoqlar» metodi, «Bahsmunozara», «Zigzag», «Aqliy hujum», «Yumaloqlangan qor», «FSMU», «Fikrlar hujumi», «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Rolli



o'yin», «Kichik guruhlarda ishlash», «Oxirgi so'zni men ayta» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanilib kelinmoqda.

Xulosa.Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodikasini oshirish va dars jarayonida interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini yanada oshirishini kafolatlaydi.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.
2. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash
3. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 184-185-b.
4. R.A.Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografiyada nashr qilindi. Toshkent, 2004-yil.
5. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 182-b.
6. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021
7. ISSN: 2181-1385
8. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-321-326

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirish orqali tarbiya fanini o'qitishga tayyorlash va o'qituvchilarning darslarda zamonaviy pedagogik texnologiya, interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish, mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подготовка будущих педагогов к педагогическому образованию посредством профессионально-методического развития, а также использование педагогами на занятиях современных педагогических технологий, интерактивных методов и обучающих игр поможет учащимся свободно и самостоятельно мыслить, творчески исследовать, расширяя объем логического мышления, помогает им связать изученное на уроках с жизнью и повысить интерес.

SUMMARY

In this article, the preparation of future education teachers for teaching education through professional and methodical development, and the use of modern pedagogical technology, interactive methods and educational games by teachers in classes will help students to think freely and independently, creative research, while expanding the scope of logical thinking, helps them connect what they learned in lessons with life and increase their interest.